Soliq siyosatining mohiyati va uning strategik-taktik jihatlari haqidagi ilmiy nuqtayi nazarlarni o'rganish jarayonida turli qarashlar yuzaga chiqmoqda. Ushbu qarashlar soliq siyosatini aniqlashning turli usullarini taklif etadi. Ba'zilar soliq siyosatini fiskal siyosat bilan bog'lash orqali kompleks yondashuvni qo'llashadi. Aksincha, muqobil istiqbollar soliq siyosati va soliqlarning asosiy funksiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatsa, boshqalari soliq mexanizmi va uning xarakterini shakllantiruvchi asosiy belgilovchilar sifatida soliq tizimidagi ma'muriy jarayonlarning hal qiluvchi ta'sirini ta'kidlaydi. Bu turlicha istiqbollar birgalikda soliq siyosati strategiyasini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, professor M.V.Karp "soliq siyosati davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi",[1] deb ta'kidlasa, S.V.Barulin "va boshqalar soliq siyosati – umumiy iqtisodiy siyosatning bir qismi sifatida davlat tomonidan amalga oshiriladigan va soliqlarning fiskal, tartibga solish va nazorat funksiyalarini belgilangan tartibda maksimal darajada amalga

1 Карп М.В. Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001. – 39 с.

oshirishga qaratilgan soliq jarayonlarini boshqarish sohasidagi strategik va taktik chora-tadbirlar majmui"[2]dir hisoblaydi, o‘z navbatida V.N.Yedronova, N.N.Mamыkinalar esa, "soliq siyosati – soliq siyosati subyektining soliq munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy tadbirlari majmuidir mazmunidagi ilmiy yondashuvlarni o‘z ilmiy tadqiqotlarida keltirib o‘tganlar[3].

Shu bilan birgalikda ayrim, masalan, T.R.Valinurov esa soliq siyosatining strategik yo‘nalishini "soliqqa tortish masalalarini har tomonlama hal qilishni nazarda tutadigan chora-tadbirlar tizimi sifatida baholaydiki, bunda muayyan davlatning tarixan shakllangan manfaatlari va maqsadlariga mos holda davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining imperativ-dispozitiv xususiyatga ega bo‘lgan, davlatning umumiy iqtisodiy strategiyasining bir qismi"[4] sifatida qaraydi.

Aslida soliq siyosati mamlakat miqyosida umumiy xarakterga ega bo‘lsada, ammo, ayrim davlatlarda (masalan, AQSH) uning ishlab chiqilishi mahalliy (munitsipal) darajada o‘ziga xos tarzda ishlab chiqilishi va amal qilinishi mumkin.

**1-jadval.** Soliq siyosati va uning strategik yo‘nalishlari oid mualliflik yondashuvlar[5]

| Mazmun | Muallif (lar) | Manbasi |
|---|---|---|
| "Soliq siyosati iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda davlat va soliq to‘lovchilarning iqtisodiy manfaatlarini uyg‘unlashtirishga ko‘maklashuvchi soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir"[6] | Chernik D.G. | Налоги и налогообложение. М.: INFRA-M, 2001. 574 с |
| "Soliq siyosati davlatning o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi"[7]. | Karp M.V. | Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: YUNITI-DANA, 2001. – 39 с |
| "Soliq siyosati - umumiy iqtisodiy siyosatning bir qismi sifatida davlat tomonidan amalga oshiriladigan va soliqlarning fiskal, tartibga solish va nazorat funksiyalarini belgilangan tartibda maksimal darajada amalga oshirishga qaratilgan soliq jarayonlarini boshqarish sohasidagi strategik va taktik chora-tadbirlar majmui"[8]. | Barulin S.V., Makrushin A.V., Timoshenko V.A. | Налоговая политика России. – Саратов: Сателлит, 2004. – с.24-25 |
| "Soliq siyosati - soliq siyosati subyektining soliq munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy tadbirlari majmuidir"[9]. | Yedronova V.N., Mamыkina N.N. | Сущност и элементы налоговой политики // Финансы и кредит. – 2005. – №5. – с. 38 |
| "Davlatning soliq siyosati - davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining imperativ-dispozitiv xususiyatga ega bo‘lgan, davlatning umumiy iqtisodiy strategiyasining bir qismi bo‘lgan, soliqqa tortish masalalarini har tomonlama hal qilishni nazarda tutadigan chora-tadbirlar tizimi"[10]. | T.R. Valinurov. | Сущност налоговой политики государства и содержание налогового механизма. Приложение к журналу "Современные наукоемкие технологии" №1 2010. |
| "Soliq siyosati – bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir qismi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir"[11]. | Jo‘rayev A.S., Safarov G‘.A., Meyliyev O.R. – T.: | Soliqnazariyasi: O‘quv qo‘llanma. Toshkent Moliya instituti, 2017. – 181 b. |

2 Барулин С.В., Макрушин А.В., Тимошенко В.А. Налоговая политика России. – Саратов: Сателлит, 2004. – с.24-25.
3 Едронова В.Н., Мамыкина Н.Н. Сущность и элементы налоговой политики // Финансы и кредит. – 2005. – №5. – с. 38
4 Т.Р. Валинуров. Сущность налоговой политики государства и содержание налогового механизма. Приложение к журналу «Современные наукоемкие технологии» №1 2010.
5 Ўқув ва илмий адабиётлар таҳлили асосида муаллиф томонидан тузилган.
6 Черник Д.Г Налоги и налогообложение. М.: ИНФРА-М, 2001. 574 с.
7 Карп М.В. Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: YUNITI-DANA, 2001. – 39 с.
8 Барулин С.В., Макрушин А.В., Тимошенко В.А Налоговая политика России. – Саратов: Сателлит, 2004. – с.24-25.
9 Едронова В.Н., Мамыкина Н.Н. Сущность и элементы налоговой политики // Финансы и кредит. – 2005. – №5. – с. 38.
10 Т.Р. Валинуров. Сущность налоговой политики государства и содержание налогового механизма. Приложение к журналу «Современные наукоемкие технологии» №1 2010.
11 Жўраев А.С., Сафаров Ғ.А., Мейлиев О. – Солиқ назарияси: Ўқув қўлланма. Тошкент Молия институти, 2017. – 181 б.

| | | |
|---|---|---|
| "Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa o'z navbatida ilmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir"[12] | Jo'rayev A.S., Safarov G'.A., Meyliyev O.R. | Soliq nazariyasi: O'quv qo'llanma. Toshkent Moliya instituti, 2017. – 181 b. |
| "Soliq siyosati deganda soliq yuki va soliq bazasi orasida ma'lum muvozanatga erishish chora-tadbirlari tushuniladi"[13]. | Miryoqub Xaydarov. | Soliq siyosatini takomillashtirishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati. iqtisod va moliya / ekonomika i finansы 2013, 8. |
| "Soliq islohotining strategiyasi va taktikasini farqlash zarur. Konsepsiya soliq islohotining maqsad va yo'nalishlarini ko'rsatuvchi, kelajakdagi soliq tizimining parametrlarini tavsiflovchi sof strategik hujjatdir"[14] | Yuliy Yusupov. | Стратегия и тактика налоговой реформы. http://ced.uz/strategiya-i-taktika-nalogovoj-reformy |

Endi bevosita soliq siyosati strategiyasi kategoriyasi, tushunchasi va munosabatlarga oid ilmiy tadqiqotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bu borada quyidagi ilmiy tahlillarni qilishga imkon bo'ldi. Bu borada soliq nazariyasi va soliqqa tortish bo'yicha yirik olimlardan biri professor V.G.Panskovning qarashlari anchayin mohiyatga egadir. Ya'ni, ushbu muallifning fikricha, "soliq strategiyasi – uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasida belgilab qo'yilgan, keng ko'lamli vazifalarni hal etishni nazarda tutuvchi davlat soliq siyosati yo'nalishidirki, uning ishlab chiqish jarayonida: soliqlar rivojlanishining asosiy tendensiyalari prognoz qilinadi, ulardan foydalanish tushunchalari shakllanadi, soliq munosabatlarini tashkil etish tamoyillarini belgilanadi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga moliyaviy resurslarni jamlashning maqsadli dasturlari ishlab chiqiladi"[15].

Aynan "shunday maqomdagi olimlardan sanalgan I.Mayburov esa, soliq siyosati strategiyasi – ishlab chiqilgan konsepsiyaga muvofiq mamlakat soliq tizimini qurish yoki isloh qilish bilan bog'liq uzoq muddatli vazifalarni hal etishga qaratilgan soliq siyosatining maqsadlari va asosiy yo'nalishlari majmuidir"[16] degan ilmiy yondashuvga ega bo'lsa, o'z navbatida, "Soliq nazariyasi va soliqqa tortish" o'quv qo'llanmasi muallifi S.Sodnomova "o'z ilmiy qarashlarida quyidagicha yondoshadi, ya'ni: kelajakni ko'zlab olib boriladigan soliq siyosati soliq strategiyasi bo'lsa, joriy vaqtdagi maqsadlar ko'zlangan soliq siyosati soliq taktikasi hisoblanadi"[17].

Davlat, korporativ va xususiy iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirishga intilishda taktika va strategiya o'zaro bog'liq bo'lib qolishi zarur. Hozirgi vaqtda soliq solishni muvofiqlashtirish uchun hukumat tomonidan qo'llaniladigan taktik manevrlar cheklangan iqtisodiy samara beradi. Bu nafaqat soliq strategiyasini amalga oshirishga to'sqinlik qiladi, balki davlatning umumiy iqtisodiy traektoriyasini ham buzadi. Demak, davlatning soliq strategiyasi iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari, obyektiv voqeliklar, jamiyat kayfiyatiga oid prognozlarni hisobga olgan holda puxta ishlab chiqilishi va quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak. Xususan:

- iqtisodiy – "iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarishning siklik xususiyatini zaiflashtirish, rivojlanishdagi nomutanosiblikni bartaraf etish, inflyatsiya jarayonlarini bartaraf etish;
- daromad o'sishini rag'batlantirish hamda aholi daromadlarining pasayishiga yo'l qo'ymaslik orqali ijtimoiy guruhlar manfaatlariga ko'ra milliy daromadlarni qayta taqsimlanishi;
- fiskal - davlat daromadlarining oshishi;
- xalqaro - boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, to'lov balansi uchun noqulay sharoitlarni bartaraf etish"[18] mazmunidagi ilmiy qarashlarni ilgari suradi.

Xalqaro valyuta fondi ekspertlari K.Silvani va K.Bayerlarning bu boradagi ilmiy qarashlari quyidagicha: "soliq ma'murchiligi strategiyasi – uzoq muddatli soliq ma'murchiligi operatsiyalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar sifatida baholanib, mamlakatda soliq uzilishi (to'lanishi kerak bo'lgan va kelib tushgan tushumlar o'rtasidagi farq) hajmi va uni kamaytirish uchun qo'llaniladigan choralar keskinligi asosida tayyorlanishi kerak",[19] deya ta'kidlashgan.

12 Жўраев А.С., Сафаров Ғ.А., Мейлиев О. – Солиқ назарияси: Ўқув қўлланма. Тошкент Молия институти, 2017. – 181 б.
13 Мирёқуб Хайдаров. Солиқ сиёсатини такомиллаштиришда ижтимоий ҳамкорликнинг аҳамияти. иқтисод ва молия / экономика и финансы 2013, 8.
14 Юлий Юсупов Стратегия и тактика налоговой реформы. http://ced.uz/strategiya-i-taktika-nalogovoj-reformy/.
15 Майбуров И.А. Теория и история налогообложения: Учебник для студентов вузов. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 435.
16 Майбуров И.А. Теория и история налогообложения: Учебник для студентов вузов. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 435.
17 Содномова С.К. Теория и история налогообложения: Учебное пособие. М.; Берлин: Директ-Медиа, 2019 – 179 с.
18 Содномова С.К. Теория и история налогообложения: Учебное пособие. М.; Берлин: Директ-Медиа, 2019 – 179 с.
19 Carlos Silvani and Katherine Baer. Designing a Tax Administration Reform Strategy: Experiences and Guidelines, IMF – 1997. 36 pages.

V.Rostovsev tomonidan “soliq siyosatini budjet siyosati bilan bog‘liq holda ilmiy tadqiqotlar olib borgan tadqiqotlarida fiskal siyosatning nazariy va uslubiy muammolari, soliq-budjet siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishi, budjet va budjetlararo munosabatlarni moliyaviy tartibga solishning fiskal siyosatini hamda fiskal tizimning dinamik muvozanatini ta’minlash, davlatning ijtimoiy yo‘nalishini amalga oshirish vositasi sifatida soliq-budjet siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy determinantlarini soliq siyosatiga bog‘liq holda tadqiq qilgan”[20].

O‘z navbatida P. Kovalev esa soliq siyosati bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlari natijasida “soliqqa tortishning turli yondashuv va nazariyalarini qiyoslash asosida iqtisodiy munosabatlarni aks ettirish shakli sifatida soliqning mohiyatini va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida davlatning rolini ochib bergan, Rossiya Federatsiyasida soliq islohotini joriy soliq siyosati bilan birgalikda rivojlantirish muammolari va istiqbollarini ko‘rib chiqqan, tadqiqot bosqichda soliq ma’muriyatchiligi jarayonlarini o‘rgangan, soliq organlarini modernizatsiya qilish doirasida soliq ma’muriyatchiligi tizimini isloh qilish yo‘nalishlarini belgilab bergan, yuridik shaxslarning mulk solig‘i, qimor o‘yinlari solig‘i misolida hududiy soliq tizimlarining soliq ma’muriyatchiligini tahlil qilgan, soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirishning mumkin bo‘lgan asosiy yo‘nalishlarini aniqlab bergan”[21].

Tadqiqot ishimizning hajmi va paragraflarning hajmining reglamentidan kelib chiqqan holda soliq siyosati va strategiyasiga oid ilmiy qarashlarning xorijiy olimlar bo‘yicha tahlilini umumlashtirgan holda bu boradagi mahalliy olimlarning yondashuvlarimizni keltirib o‘tishni lozim deb hisoblaymiz. Bu muammo doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan yana bir olim “Yu.Lapinning fikricha”[22], “soliq tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichida siyosat hali moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlariga va soliq to‘lovchilarning majburiy soliq to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashining o‘sishiga qarshi turishga qodir emas, insofsiz soliq to‘lovchilarning soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashiga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish soliq siyosatining dolzarb masalalaridan biri bo‘lishi kerak”[23]. Ushbu tadqiqotchi o‘zlarining ilmiy izlanishlari davomida davlat boshqaruvi sohasidagi soliq siyosatining konseptual asoslari, maqsadlari va alohida funksiyalarini o‘z ichiga olgan chuqur nazariy tahlil qildi. Ular soliq siyosatini shakllantirish, uni shakllantirish va amalga oshirishga yordam beruvchi instrumental mexanizmlarni yanada mustahkamlash va turkumlashtirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy va uslubiy asoslarni sinchkovlik bilan belgilab berdilar. Bundan tashqari, ularning keng qamrovli izlanishlari soliq siyosatini amalga oshirishning asosini tashkil etuvchi murakkab mexanizmni ochib berdi va uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni har tomonlama tushunish imkonini berdi. Keyinchalik ular soliq siyosatining eng muhim yo‘nalishlarini aniqlashning asosiy tamoyillarini o‘rganib, soliq yukini murakkab baholashni chuqur o‘rgandilar.

Ta’kidlash lozimki, bu boradagi tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, aynan bu boradagi yaxlit yondashuvlar professor A.Jo‘rayev boshchiligida tayyorlangan “Soliq nazariyasi” nomli o‘quv qo‘llanma mualliflari tomonidan keltirilgan. Ushbu mualliflarning ilmiy qarashlariga ko‘ra, “soliq siyosati — bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir qismi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir” [24]. Bundan tashqari, ushbu mualliflar soliq siyosatidagi konsepsiya haqida fikr bildirishgan va uni “soliq konsepsiyasi – bu soliqlarni yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligidir, soliq siyosati strategiyasi-muayyan uzoqroq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlari bo‘lib, o‘z navbatida ilmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir, soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sayi-harakatlarni bildiradi, ya’ni qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo‘nalishlar majmuasi – soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi”[25].

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan yana biri professor Q.Yahyoyev soliq siyosatiga ta’rif berar ekan, quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: “Soliq siyosati davlatning soliq sohasidagi barcha tadbirlarini rejalashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta’minlash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan chora-tadbirlar yig‘indisidir”[26].

20 Ростовцев Вячеслав Вячеславович. Бюджетно-налоговая политика Российской Федерации 08 00 10 — Финансы, денежное обращение и кредит Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Орел — 2008.

21 Ковалев Петр Иванович. Экономические и административные формы реализации налоговой политики. Специальности: 08.00.05 — экономика и управление народным хозяйством (макроэкономика) 08.00.10 —финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат. Диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук..Ростов-на-Дону — 2006.

22 ЛАПИН Юрий Владимирович. Формирование и реализация налоговой политики в России. Специальность: 08.00.10 - «Финансы, денежное обращение и кредит». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саратов – 2013. С.5.

23 ЛАПИН Юрий Владимирович. Формирование и реализация налоговой политики в России. Специальность: 08.00.10 — «Финансы, денежное обращение и кредит». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саратов – 2013. С.3.

24 Жўраев А.С., Сафаров Ғ.А., Мейлиев О.Р. Солиқ назарияси: Ўқув қўлланма. Тошкент Молия институти, 2017. – 181 б.

25 O‘sha manba. 184 b.

26 Яҳёев Қ. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. –Т. 2003. 28-бет.

Professor J.Zaynalovning fikricha, "Soliq siyosati davlatning soliq munosabatlari doirasidagi farmon, qonun va qarorlari ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, faoliyatlarining tub yig'indisidir"[27].

Dotsent M.Haydarov esa, soliq siyosatiga oid ilmiy qarashlarini, "davlatning soliq siyosati bir-biriga qarama-qarshi va raqobatdosh bo'lgan masalalarni hal qilishga qaratiladi. Ya'ni, bir tomondan, iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat tomonidan ijtimoiy boshqaruv va infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirilishi uchun davlat budjetiga soliqlar yig'iladi, boshqa tomondan, haddan tashqari katta miqdorda soliq stavkalarini o'rnatish, ya'ni soliq yukining o'sishi erkin iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi",[28] deb ifodalash bilan bir qatorda "soliq siyosati deganda soliq yuki va soliq bazasi orasida ma'lum muvozanatga erishish chora-tadbirlari tushuniladi. Soliq yukining eng oddiy tushunchasi uni soliq stavkalariga tenglashtirish hisoblanadi. Vaholanki, ba'zi hollarda soliq ma'murchiligi ham soliq yuki sifatida baholanadi",[29] degan ilmiy ta'rifni keltiradi. Muallif, shuningdek, soliq siyosatining to'g'ri yo'li (taktikasi) soliqqa tortish orqali jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni egallashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, haddan tashqari og'ir soliq yukining oldini olish choralarini ko'rish zarur. Soliqlarning imtiyozlari va og'irligini miqdoriy jihatdan baholash juda qiyin ish. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, optimal soliq turlari va ularning miqdorini belgilash global miqyosdagi eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Amaliyotchi iqtisodchi olim Yu.Yusupov esa, o'z ilmiy maqolalarida "soliq islohotining strategiyasi va taktikasini farqlash zarur. Konsepsiya soliq islohotining maqsad va yo'nalishlarini ko'rsatuvchi, kelajakdagi soliq tizimining parametrlarini tavsiflovchi sof strategik hujjatdir. Unda soliq islohotining bosqichlari va muddatlari ko'rsatilmagan"[30] degan ilmiy g'oyani bildirgan holda, uning qarashlarida soliq siyosatini islohot sifatida qaraydi va strategiyani kelajak hujjati sifatida baholaydi. Soliq siyosati strategiyasida muhim taktik yo'nalishlar belgilab berilgan bo'lsada, soliq islohotlarini soliq siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholash uslubiy jihatdan asossizdir. Aksincha, bu islohotlar soliq siyosatini amalga oshirish doirasida amalga oshiriladigan oraliq taktik harakatlar sifatida qaralishi kerak. Ular soliq siyosatida belgilangan strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi va muayyan muddat va bosqichlarga moslashtiriladi. Bu shuni ta'kidlaydiki, soliq siyosati bo'yicha ko'plab akademik istiqbollar umumiy ma'noda mavjud bo'lsada, soliq siyosati strategiyasiga alohida e'tibor qaratilayotgan nisbatan kam. Bu kamchilik qisman soliq siyosati strategiyalarini ishlab chiqishning murakkabligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari bilan yaqindan uyg'unlikni taqozo etadi, bu esa keng qamrovli tadqiqot ishlari bilan izchil va mazmunli bog'lanishni talab qiladi. Oxir oqibat, soliq siyosati strategiyasini mustaqil ishlab chiqish to'liq emasligicha qolmoqda, bu esa samaradorlikni oshirish va maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan taktik yo'nalishlarni aniq va har tomonlama qabul qilish zarurligini ta'kidlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq siyosati hamda uning strategiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar tahliliy sharhi bo'yicha mulohazalarimizni yakunlar ekanmiz bir qator ilmiy xulosalarni chiqarish mumkin:

Har bir hodisa, xoh u iqtisodiy, ijtimoiy yoki siyosiy sohalarga taalluqli bo'lsin, asosan ijtimoiy-iqtisodiy asoslardan kelib chiqadi. Xuddi shunday, tadqiqotimizning asosiy nuqtasi bo'lgan soliq siyosati ham o'zining chuqur ildizlarini turli ijtimoiy-iqtisodiy asoslarda topadi. Davlat soliq siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy asoslari jamiyatning turli qatlamlari, xususan, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasida muvozanatni saqlash imperatividan kelib chiqadi. Muvozanatga intilish yana bir asosiy shartni – milliy daromadni teng taqsimlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Binobarin, turli markazlashgan pul mexanizmlarini o'rnatish zaruratga aylanadi.

Moliyaviy resurslarni ushbu markazlashtirilgan pul zaxiralariga yo'naltirishning hal qiluvchi zarurati soliqlar va boshqa majburiy yig'imlarni amalga oshirishni taqozo etadi, chunki davlatning iqtisodiy o'rnini bosuvchisi yo'q. Ushbu majburiy badallarni undirish soliq to'lovchi sifatida faoliyat yurituvchi jamiyat a'zolaridan ularni undirish tartibi va mexanizmlarini tartibga solishni talab qiladi. Iqtisodiy o'zaro munosabatlarning ushbu murakkab va keng tarmog'i "soliq siyosati" atamasi bilan qisqacha ifodasidir.

Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchilar va davlatning moliyaviy rekvizitlarini sinxronlashtirish imperativi kabi ichki jarayonlar kuchga kiradi. Qolaversa, davlat zimmasiga yuklangan iqtisodiy vazifalarni bajarish uchun moliyaviy mexanizmlar zarur. Ushbu jamoaviy o'lchovlar davlatning soliq siyosatining bajarilishini nazorat qiladi, strategik maqsadlarni belgilash va ularni keyinchalik amalga oshirishni o'z ichiga

---

27 Зайналов Ж. Солиқлар ва солиққа тортиш. Самарқанд. 2002. 32-бет

28 Мирёқуб Хайдаров. Солиқ сиёсатини такомиллаштиришда ижтимоий ҳамкорликнинг аҳамияти. иқтисод ва молия — экономика и финансы 2013, 8.

29 O'sha manba.

30 Юлий Юсупов. **Стратегия и тактика налоговой реформы**. http://ced.uz/strategiya-i-taktika-nalogovoj-reformy.

oladi. Obyektiv iqtisodiy jarayon sifatida tavsiflangan ushbu kontekstda taktik yoʻnalishlarni ifodalash muhim ahamiyatga ega.

Soliq siyosatining kelib chiqishi moliyaviy munosabatlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ushbu moliyaviy dinamikaning markaziy elementini tashkil qiladi. Bundan tashqari, soliq siyosati iqtisodiyotning barqarorlashuvi va oʻsishiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Iqtisodiy siyosatning kengroq doirasida joylashgan moliya siyosati soliq siyosati, budjet siyosati, soliq-budjet siyosati va soliq-budjet siyosatini oʻz ichiga oladi va siyosat vositalarining koʻp qirrali tarmogʻini tashkil etadi. Soliq siyosati fiskal siyosat bilan uzviy bogʻliqlikni saqlasada, uni ajratib turadigan oʻziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Bundan tashqari, soliq siyosati pul-kredit siyosati bilan simbiotik aloqada boʻlib, inflyatsiya darajasi, soliqlarning pul agregatlarining kattaligi va dinamikasiga taʼsiri va korxonalarning investitsiya siyosatini kuchaytirish uchun kredit resurslarini safarbar qilish kabi fikrlarga taʼsir qiladi. Bu omillar soliq siyosatini ishlab chiqishda izchillik bilan oʻzaro bogʻlangan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat xoʻjalik faoliyatini tartibga solishda hal qiluvchi rol oʻynaydi hamda soliq siyosati oʻzining oldindan belgilangan maqsadlariga erishishning asosiy vositasi sifatida maydonga chiqadi. Amalda soliq siyosati davlat boshqaruvining pul-kredit siyosati hamda narx siyosati kabi boshqa yoʻnalishlari bilan birgalikda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy manzarasining barcha jabhalariga chuqur taʼsir koʻrsatadi. Davlat soliq siyosatining turli iqtisodiy va moliyaviy siyosatlar bilan murakkab oʻzaro bogʻliqligi uning murakkab jarayonlardagi ajralmas rolini taʼkidlaydi. Soliq siyosati boʻyicha koʻplab istiqbollarga qaramay, yuqorida aytib oʻtilganidek, soliq siyosati strategiyasiga nisbatan yondashuvlar kam. Bu boʻshliqni qisman soliq siyosati strategiyasining murakkab tabiati bilan bogʻlash mumkin, bu esa amaliy amalga oshirishda ham, nazariy tushuntirishda ham qiyinchiliklar tugʻdiradi. Shuningdek, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari bilan puxta muvofiqlashtirishni, mazmunli aloqalarni oʻrnatish uchun chuqur tadqiqotlarni talab qiladi. Bundan tashqari, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish oʻz-oʻzidan yakuniy nuqta emas; samaradorlikni oshirish va oldindan belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan taktik kurslarning aniq va har tomonlama belgilanishi bilan toʻldirilishi kerak. Bu jarayon strategiyani shakllantirish bilan bogʻliq murakkabliklardan ustundir.

Bizningcha, soliq siyosatining mohiyatini anglashda uni tor hamda keng maʼnoda tushunish mumkin. Tor maʼnoda *soliq siyosati deganda soliqlar joriy etish va uni undirishga qaratilgan davlatning faoliyati tushuniladi. Chunki, siyosatning oʻzi davlatning faoliyatini bildiradi*.

Kompleks nuqtayi nazardan, *soliq siyosati davlat faoliyatini oʻz ichiga oladi, oʻzida izchil chora-tadbirlar majmuasini oʻz ichiga oladi. Ushbu chora-tadbirlar soliqlarni joriy etish, ularni undirish mexanizmlarini yaratish va soliq yigʻish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan boʻlib, ularning barchasi milliy daromadni qayta taqsimlashdan iborat.*

Soliq siyosati strategiyasining birlamchi, oʻzgarmas jihati davlat budjeti va soliq toʻlovchilar manfaatlarini uygʻunlashtirish va uygʻunlashtirishdan iborat. Aksincha, soliq siyosati doirasidagi soliq strategiyasining moslashuvchan jihati soliq toʻlovchilarda soliqqa rioya etish madaniyatini yuksaltirish bilan birga, budjet daromadlarining adolatli shakllantirilishini taʼminlash, tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari va imtiyozlar berish, ularning samaradorligini oshirishga taalluqlidir. Ushbu strategiya soliqlarning ishlab chiqarish jarayonini jonlantirishga taʼsirini oshirish va doimiy ravishda kuchaytirishga qaratilgan.

Soliq siyosatining taktik jihati *soliq siyosatida va uning umumiy strategiyasida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda oʻzaro bogʻliq holda qoʻllaniladigan usullar va vositalarning assortimentini oʻz ichiga oladi. Qisqacha aytganda, bu taktikalar soliq siyosati strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishning amaliy va qulay vositalarini ifodalaydi*.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.**


1. Нестеренко Т.Г. (2006) Концепция эффективной бюджетной политики: автореферат к.э.н. – М.: Финансовой академии при Правительстве Российской Федерации, 32 с.
2. Пансков В.Г. Налоги и налогообложение в Российской Федерации: Учебник для вузов. – 7-е изд., доп. и перераб. – М.: МЦФЭР, 2006. – 592 с.
3. Карп М.В. Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001. – 477 с.
4. Едронова В.Н., Мамыкина Н.Н. Сущность и элементы налоговой политики. // Финансы и кредит.– 2005. – №5. – с. 37-40.
5. Юрій С. І. Бюджетна системи України: Навч. посіб. / С. І. Юрій, Й. М. Бескид.– К.: НІОС, 2000.– С. 46.
6. Орешин В. П. Государственное регулирование национальной эконо-мики (в вопросах и ответах): Учебн. пособ. – М.: ИНФРА-М, 2001.– 124 с.
7. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. – Тошкент: “Ғафур Ғулом” нашриёт уйи 2020.– 640 б.
8. Солиқ қўмитаси маълумотлари. www.soliq.uz.
9. Ismatov Xolbuta Begmatovichning Soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023.




TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani Kumushkon ko'chasi, 26-uy.